BADIIY MATN TARKIBIDAGI O‘XSHATISHLARDA ARABIY SO‘ZLAR ISHTIROKIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Karimova Munira Bahodir qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

munirakarimova611@.gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlardan bir bo‘lgan lingvopoetikaning muhim unsurlaridan biri tahlilga tortildi. Bu unsur tilda keng uchrovchi o‘xshatishlar bo‘lib, ularning matn tarkibidagi poetik funksiyasiga diqqat qaratildi. O‘xshatsihlarda arabiy birliklar ishlatilishiga alohida tahlilga tortildi. Xususan, arab tilshunosligida o‘xshatishlarning o‘ziga xosliklari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, estetik funksiya, ekspressivlik, tashbeh, analogiya, mushabbah, mushabbah bih.*

Аннотация. *В данной статье анализируется один из важных элементов лингвопоэтики, являющейся современным направлением лингвистики. В качестве этого элемента рассматриваются широко распространенные в языке сравнения, причем особое внимание уделяется их поэтической функции в структуре текста. Отдельному анализу подверглось использование арабских заимствований в сравнениях. В частности, исследованы специфические особенности сравнений в арабском языкознании.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, эстетическая функция, экспрессивность, ташбих, аналогия, мушаббах, мушаббах бих.*

Abstract: *This article analyzes one of the important elements of linguopoetics, which is a modern branch of linguistics. This element focuses on similes widely used in language, paying special attention to their poetic function within the text. The use of arabic-origin units in similes is subjected to a separate analysis. In particular, the specific features of similes in arabic linguistics are examined.*

Keywords: *linguopoetics, aesthetic function, expressiveness, tashbeeh, analogy, mushabbah, mushabbah bih.*

Fikrni bayon etish yo‘sini, uning tinglovchi yoki o‘quvchiga yetib borishi, ularga ta’sir ko‘rsata olishida matnda foydalanilgan til unsurlarining xizmati beqiyos. Yangi ma’lumotning retsipiyent ongida qay shaklda gavdalanishi na matn shakliga va na muallifining shaxsiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ekspressivlik xususiyati faqat va faqat matnning ma’lum tarkibiy qismlariga yuklatilgan vazifadir. Xo‘randa qarshisiga taom siniq, rangi o‘chgan, ishtaxa tortmaydigan bir idishda tortilishi ham, yohud yarqiragan, ko‘z tushsa quvnaydigan, toza va estetik bir likopda ham taqdim etilishi ehtimol. Har ikki holatda ham bu harakatning javobgari taqdim qiluvchi taraf bo‘ladi. Matnga nisbatan ham yuqoridagi ramziy misolimizni tatbiq etish mumkin. Darhaqiqat, til unsurlaridan unumli foydalanish, kerakli joylarda o‘zga til boyligiga murojaat qilish muallifning zimmasidadir.

Badiiy matnning bo‘yoqdorligini, ekpressivligini yanada kuchaytiruvchi lisoniy vositalardan biri bu o‘xshatishlar sanaladi.

“O‘xshatish – tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o‘xshatish orqali yorqin va bo‘rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo‘lib, bunda o‘xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi”[7].

Tilda o‘xshatishlar bo‘yoqdorlik va obrazlilikni kuchaytirgani sababli favqulodda poetik ifoda kuchiga ko‘ra o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi. O‘xshatishlar matn tilini jonlantirish xususiyatiga ega yagona lingvistik unsur sanaladi. Hissiy tushnchalarni, yangiliklarni, hali insoniyatga tanish bo‘lmagan yoki kam ommalashgan tushunchalarni ifoda etishda o‘xshatishlardan foydalaniladi. Bu nazarda tutilgan ma’noni to‘g‘ri, aniq va tushunarli shaklda yetib borishini tam’inlaydi. Qattiq predmetni toshga, yumshoq narsani momiq paxtaga qiyoslash orqali o‘quvchi tasavvurida hali his etib, ushlab ko‘rilmagan narsalarini idrok eta olish imkoni mavjud bo‘ladi.

Umumiy tilshunoslik nazariyasiga ko‘ra o‘xshatishlar ikki asosiy turga bo‘linadi:

1) Individual – muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar;
2) Umumxalq yoki turg‘un o‘xshatishlar[8].

O‘xshatishlarning birinchi turi ijodkorning badiiy va lingvistik mahoratini

[7] Quronov D. va boshqalar. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 54.

[8] O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – B. 5.


namoyon etish uchun cheksiz imkon taqdim etadi. Aslida o‘xshatishlarning ayna shu erkin turi juda qiziq va rang-barangdir. Har bir inson o‘ziga xos individual xarakter va dunyoqarash sohibi ekani e’tiboridan uning tafakkur mahsuli bo‘lmish erkin o‘xshatishlar ham biri ikkinchisini takror etmaydigan shaklda bo‘ladi. Bunday muallif o‘xshatishlari badiiy asarning lisoniy qiymatini oshiradi.

Aslida ilmiy-nazariy manbalarda “o‘xshatish”, “tashbeh”, “qiyos”, “analogiya” kabi atamalar o‘zaro yonma-yon qo‘llaniladi.

Arab tilshunosligi, adabiyotshunsoligi va balog‘at ilmida o‘xshatish juda chuqur o‘rganilgan dolzarb tadqiqot mavzusi sanaladi. Lug‘aviy jihatdan شبه o‘zagidan kelib chiqqan “tashbeh” arabcha so‘z bo‘lib, “o‘xshatish”, “qiyoslash” kabi ma’nolarni anglatadi. Tashbehning eng go‘zal namunalarini, shubhasiz, Qur’oni Karim oyatlari tarkibida uchrashi arab olimi Abdulloh ibn Mu’tazz (861-908) ning “Badiiy san’atlar” kitobida misol sifatida keltiriladi[9].

Balog‘at termini sifatida *tashbeh* talaffuzda mavjud bo‘lgan yoki bo‘lmagan “kof – ك” kabi omil vositasida bir yohud bir nechta narsani boshqa narsalar bilan mushtarak sifatlarga ega bo‘lishini bayon etishdir[10].

Demak, tashbeh boshqa lingvopoetik unsurlardan farqli o‘laroq o‘rganilayotgan masalaning har ikki tarafini e’tiborga olishni talab etadi. Aynan o‘xshatishni bir koordinatalar o‘qiga joylashtiradigan bo‘lsak, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:



[9] Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поетикаси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 304.

[10] علي الجارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. – كراتشي: 2010. – ص.134.

Aslida tashbehning to‘rt unsuri mavjduligi balog‘atga oid ilmiy manbalarda ko‘rsatiladi. Ular quyidagilar:

1) المشبه- o‘xshayotgan
2) المشبه به - o‘xshatilgan
3) أداة التشبيه - tashbeh vositasi
4) وجه الشبه - o‘xshatish usuli

Bu to‘rt unsurning har biri matn tarkibida o‘ziga xos vazifaga ega hisoblanadi.

Ilmi badi’da tashbeh tuzilishi, qiyoslanayotgan narsa-tushunchalar orasidagi o‘xshashlik darajasiga ko‘ra, yana bir qancha turlarga bo‘linadi. Ular quyidagilar:

1. تشبيه عكس (tashbehi aks) – teskari o‘xshatish;
2. تشبيه اضمار (tashbehi izmor) – yashirin o‘xshatish;
3. تشبيه كناية (tashbehi kinoyat) – ko‘chimli o‘xshatish;
4. تشبيه مشروط (tashbehi mashrut) – shartlangan o‘xshatish;
5. تشبيه مجمل (tashbehi mujmal) – noaniq o‘xshatish;
6. تشبيه مسلسل (tashbehi musalsal) – ketma-ket o‘xshatish;
7. تشبيه مطلق (tashbehi mutlaq) – ochiq o‘xshatish;
8. تشبيه مفصل (tashbehi mufassal) – to‘liq o‘xshatish;
9. تشبيه معقد (tashbehi mu’aqqad) – noaniq o‘xshatish;
10. تشبيه موكد (tashbehi mu’kkad) – ta’kidli o‘xshatish;
11. تشبيه تفضيل (tashbehi tafzil) – chekinish yo‘li bilan o‘xshatish.

Tashbeh bir qarashda sodda va qiziq jarayon bo‘lib ko‘rinadi. Ammo tashbeh yuzaga kelishi, muallifning o‘quvchiga ayni maqsadni ifoda eta olishi shart etib qo‘yiladi. O‘xshashlikni ko‘rsatishda odatda inson sezgi organlari orqali idrok eta oluvchi xususiyatlar nazarda tutiladi.

Sakkokiy “Miftahul ulum” asarida “mushabbah” va “mushabbah bih” borasida atroflicha so‘z yuritib, bu ikki unsurning aslida bir-biri bilan mutanosib ekanini, faqatgina daqiq nuqtalarda farqlanishini ta’kidlaydi[11]. Shunisi e’tiborliki, tashbehni qabul qilishga doir yana qator vaziyatlarni sanab o‘tadi:

“His qilish orqali idrok etish”. Bunda nazarda tutilgan tashbeh unsurlarini sezgi organlari orqali anglash mumkin. Sakkokiy aynan shu nuqtada yuzni oyga qiyos qilinishini misol sifatida keltirib o‘tadi. Darhaqiqat, yuzni ham, ko‘kdagi oyni ham

[11] أبو بكر محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم. – بيروت, 2001. – ص. 211.

inson ko‘zi orqali ilg‘ashi mumkin. Ikki tarafni ham ko‘rib turib, ulardagi o‘xshashlik darajasini aniqlashning imkoni ham mavjud.

“Tasavvur orqali idrok” – bunda inson bu dunyoda mavjud bo‘lmagan narsalarni tasavvur etish orqali tashbehning asl mazmunini tushuna oladi. O‘xshatilayotgan taraf aslida mavjud bo‘lib, o‘xshayotgan taraf mubolag‘ali tarzda ifoda etilganda, aynan tasavvur ishga tushadi. Shu orqali muallif nazarda tutgan ma’no o‘quvchiga yetib boradi.

“Ong bilan idork etish” – bu xususda Sakkokiy aniq ma’lumotlarga tayangan holda tashbehni tushunishni nazarda tutadi.

O‘xshatishlaning badiiy matn tarkibidagi lingvopoetik qiymati xususida so‘z borar ekan, M.Yo‘ldoshev o‘zining badiiy matn va uning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan monografiyasida har qanday o‘xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘zi o‘ngida go‘zal bo‘yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo‘lishini ta’kidlagan[12].

Demak, badiiy matnning lisoniy tahlilida bu ikki birlikni bir-biridan alohida tahlilga tortih maqsadga muvofiq sanaladi.

Tilshunos olimlar tashbehdan foydalanish orqali ma’lum bir maqsadlar nazarda tutilishini e’tirof etishadi:

a) mushabbahga isnod bo‘lgan narsaning aslida mavjud ekanini ta’kidlash;
b) mushabbahning holatini ochiqlab berish
c) mushabbah holatining darajasini ko‘rsatish
d) mushabbah holatini ongli ravishda anglash
e) mushabbahni ma’lum uslubiy unsurlar bilan go‘zallashtirib, jumlani balig‘ holga keltirish shular jumlasidandir.[13]

Tashbehning ikki asosiy qismi bo‘lgan mushabbaha va mushabbaha bihi aslida ikki bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalar ekani ayrim manbalarda namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda o‘rinli bir savol tug‘iladi: bir-biriga semantik va morfologik bog‘liqlikda bo‘lmagan ikki tushuncha o‘xshatish orqali o‘zaro aloqaga kirishgach ularning ma’no qatlamida ham birikish yuz beradimi? Aslida ushbu savol tashbehning

[12] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 25.
[13] Erog‘lu Y. Arap belagatinde kinaye ve istiare. – Erzurum: SBE, 2007. – S. 26.

ikki unsuri borasidagi juda qadimiy bahs mavzusidir. Bu borada olimlar turli fikrlarni bildirishgan. Jumladan Jurjoniy shunday deydilar:

“Shoirlar, olimlar va balog‘atchilar ba’zan insonni oyga, quyoshga, yomg‘irga, dengizga, sherga, qilichga, ilonga va yulduzga qiyos etishadi. Biroq, bu qiyoslardan foydalanar ekanlar kishining asl ma’no-mazmunini, ya’ni insonligini bu tashbehlardan ortga surib qo‘ymaydilar. Qoralash va tahqirlash uchun it, to‘ng‘iz, maymun, eshak, ho‘kiz, echki, tulki, chayon va buzoq kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu o‘rinda ham ayni shaklda insonni bu jonzotlarga aylantirib, undagi asl fitrat bo‘lmish shaxs tushunchasini yo‘q qila olmaydilar”[14].

Demak, o‘xshatish vaqtinchalik yuz beruvchi holat. Bu vaziyatni kimyoviy unsurlarning o‘zaro reaksiyaga kirishish jarayoniga ham qiyoslash mumkin. Ma’lum bir kimyoviy moddalar bir-biriga qorishtirilganda bir zumda inson ko‘z o‘ngida rang o‘zgarishi, tutun chiqishi, portlash kabi holatlar yuz beradi. Biroq ma’lum soniyalardan so‘ng bu reaksiya tugab moddalar asliyatiga qaytishi mumkin. Tahbehda ham ayni holat yuz beradi. Mushabbah va mushabbah bihidan muallif matn tarkibida foydalanar ekan, ular shu kontekst ichkarisidagina aloqaga kirishib ma’lum semantik xususiyat kasb etadi. Lekin asliyatda ular o‘z holat, shakl va mazmunlarida sobit qoladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erog‘lu Y. Arap belagatinde kinaye ve istiare. – Erzurum: SBE, 2007.
2. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
3. Quronov D. va boshqalar. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поетикаси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006.
6. أبو بكر محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم. – بيروت, 2001.
7. عبد القهار الجرجاني. أسرار البلاغة. – بيروت: 1988.
8. علي الجارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. – كراتشي: 2010.

[14] عبد القهار الجرجاني. أسرار البلاغة. – بيروت: 1988. – ص. 209.